

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI.
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

Himoyaga ruxsat etilsin
Boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ish kasbiy qayta
tayyorlash kurs rahbari
_____B.O'.Pardaev
«_____» _____ 2012 yil

Himoyaga ruxsat etilsin
«Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi» kafedrası
mudiri ____ p.f.n.dotsent X.R.Sanaqulov
«_____» _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.

Bajardi: Ruzieva Soxibaxon Mirzaabdullaevna

Ilmiy rahbar: p.f. d.professor R.A.Mavlonova

Toshkent 2012

M U N D A R I J A

Kirish

I bob. Innovatsion pedagogik tushuncha, uning tarixiy turini rivojlantirish.

1.1. Boshlang'ich ta'lim tizimiga innovatsion yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari.

1.2. O'qtuvchining innovatsion faoliyatiga tayyorlash muammolari.

I bob bo'yicha xulosa.

II bob. Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

2.1. Boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini tashkil etish shakllari.

2.2. Boshlang'ich siniflarning o'qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

II bob bo'yicha xulosa.

III bob. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili.

3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi.

Umumiy xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritgach siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy soxalarda turli o'zgarishlar, yangiliklar ko'zga tashlana boshladi. Istiqlol tufayli rivojlanib borayotgan respublikamiz fondi oldida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muhim vazifa va muammolar paydo bo'ladi, ana shulardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash, ularni jamiatda o'rnini topish, vatan uchun o'z xissasini qo'shishi va uni kelajak avlodga yetkazishi muammolardan bo'lib, bu muammoni hal etishda prezidentimiz I.A.Karimov Oliy majlisni IX sesiyasidagi (1997 yil 29 avgust) nutqida alohida takidlab o'tdi. Shu vaqtning o'zida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "ta'lim to'g'risidagi" qonun qabul qilindi.

Dasturda ko'rsatilishicha uni amalga oshirish bosqichma-bosqich isloh qilish nazarda tutilgan edi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi mukammal ta'lim tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish kabi masalalar «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning bosh maqsadi va ta'lim sohasidagi islohotlar asosini tashkil etadi.

Yuksak ma'naviy ahloqiy qarashlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxsni yetishtirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish, o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lomligini mustahkamlash va ijobiy hal qilish uchun hukumatimiz rahbarlari barcha imkoniyatlarni yaratmoqdalar.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tganlar: «Biz naslimizning kealajagi sog'lom avlod uchun kurash boshladik. Shu nom bilan orden ta'sis etdik va muxsus xalqaro jamg'arma tuzdik. Bu bejiz emas albatta. Sog'lom avlod deganda biz faqat jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodga ega bo'lgan xalqni tushunishimiz kerak. Bunday xalqni hech qachon, hech kim yenga olmaydi. Buni hammamiz anglamog'imiz shart».

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 – yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqoralik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz” hamda, Vazirlar mahkamasining 2010 – yil 29-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – taraqqiyotni va halqimiz faravonligini yanada yuksaltirish” mavzulardagi ma'ruzalari mazmun-mohiyati va undagi hulosalarni o'rganish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 2010 – yil 23-fevraldagi 101-F sonli farmoishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimizdagi kun tartibidagi bosh masalalardan biridir.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida “... mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqoralik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz” degan fikr mulohazalardan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatning barpo etilishiga hizmat qilish asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjud¹”.

Shunigdek, O'zbekiston respublikasi prezidentining “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarda “ ... ta'lim jarayoniga yangi ahborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, mul'timedia vositalarni keng joriy etish va Oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifati tubdan yaxshilash ... samarali tizimni yanada rivojlantrish ko'zda tutilgan dolzarb vazifalardan biridir²”.

Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Odamning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor

¹ I. A. Karomov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27 yanvar bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Adolat gazetasi. T 2010 29 yanvar № 4(761) 1-3 betlar.

² “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Qarori. Adolat gazetasi. T 2010-yil 29 yanvar № 4 1-2 betlar.

bo'ladi. Shakllanib kelayotgan shaxs oilada kattalar, maktabda o'qituvchilar hokimligidan qutulsa, uning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, bolada o'z hatti-xarakati uchun javobgarlik hissi paydo bo'ladi. U o'z fikri, qarashiga ega bo'ladi. Fikr kishisi hamisha o'z qarashlarini asoslaydi, kerak bo'lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash xalqimiz uchun qadim zamonlardan beri eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bularni biz o'rta asrlarda yashab o'tgan allomalarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy asarlardan bilishimiz, o'rganishimiz mumkin. Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Raihon Beruniy, Al Horazmiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk mutafakkirlar o'zlarining turli fanlar sohasida yaratgan ta'limotlari bilan jahon fani va madaniyati hazinasiga ulkan boy meroslarni qoldirganlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek har bir inson maktab egallar ekan, uni mukammal o'rganib, kelajak avlodlarga yetkazib berishi kerak. Maktab egalarini qadimda e'zozlab kelaganlar. Bizning davlatimizda ham ularga bo'lgan hurmat ehtirom yanada ortdi. Hozirgi kunimizda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, ijodkor, o'z ishining mohir ustalari mustaqil O'zbekiston Respublikamizda ko'proq talab qilinmoqda.

Jumladan yangi turdagi ta'lim muassasalarini (boshlang'ich sinf, akademik litsey) ochilishi va ularda yuqori malakali mutaxassislar tomonidan ta'limning ilg'or texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim tarbiya ishlarini olib borishini yo'lga qo'yilishi: jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi yetkachi bilim dargohlariga iqtidorli yoshlarni o'qishga yuborilayotganligi buning yaqqol dalilidir.

Mustaqil O'zbekistonimiz Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasida yoshlarning jamiyatimizdagi o'rniga juda katta baho berganlar. Boshlang'ich sinfda o'qituvchilar maktabga bo'lgan moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha

kasb egallash imkoni borligi, ya'ni yaxshi kasbhunar egasi bo'lish insonning eng katta ziynati bo'lib, uning butun hayoti davomida juda katta foyda keltiradi”.

Shuningdek, yoshlarni milliy uyg'onish g'oyasini amalga oshirish, davlatimiz kelajakda barqaror bo'lishi ham yoshlarimiz qanday shakllanishiga bevosita bog'liq.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, eski mafkuraviy qarashlardan to'la halos bo'lishimizni aytib, boshlang'ich ta'limga e'tibor berib, jumladan shunday degan edi: “Boshlang'ich ta'limga past nazar bilan qaralishining isbotishuni sobiq SSSRda butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4 sinf o'quvchilarni o'qitadigan muallimlar tayyorlash edi”.

Vaxolanki, bolaning dunyo qarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirilib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilari malakali, zamonaviy kadr qilib tayyorlash jarayoni davom etmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimida oliy ma'lumotli o'qtuvchilar dars berishi ta'lab qilinmoqda va shu bilan birga boshlang'ich sinf darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv samaradorligini oshirish muammosi bo'lib, bu o'quv jarayoni tashkil etishga nisbatan va amalga oshirishga hozirgi kunda prof. R.A.Mavlonova, prof. N.N.Azizxadjayeva, prof. O'.Q.Tolipovlar va J.G'.Yo'ldoshovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Darsliklar yaratish bo'yicha metodistlardan dotsen Sh.Yo'ldosheva, X.G'ulomovalar o'z xissalarini qo'shib faoliyat yuritmoqdalar.

Mavzuning dolzarbligi boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni nazariy va amaliy ahamiyati bilan bog'lanadi.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni shakllari va imkoniyatlari ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti: Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini shakllanish jarayoni.

Bituruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni mazmuni va mohiyati.

Bituruv malakaviy ish vazifasi: Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish va taxlil qilish.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish shakl va imkoniyatlarini ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid tavsiyalar yaratish.

Bituruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati. Boshlang'ich ta'limda innovatsion-pedagogik texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning qiziqishlarini xisobga olib, tarbiyalashga yo'naltirilgan darslar mazmuni ishlab chiqildi va nazoratga olindi.

Bituruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Boshlang'ich ta'limda dars imkoniyatlari kelib chiqqan holat bo'yicha innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin, bundan tashqari odobnoma, tarbiyaviy soat darslarida foydalanish mumkin.

Bituruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: Bituruv malakaviy ishning kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, umumiy hulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. INNOVATSION PEDAGOGIK TUSHUNCHA, UNING TARIXIY TURINI RIVOJLANTIRISH

1.1. Boshlang'ich ta'lim tizimiga innovatsion yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari

Innovatsion pedagogika hozirgi davirda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining etiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi olimlar shu boisdan ham mavjud ananaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakilanib rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti uning asosiy vazifasi xukumron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Innovatsion pedagogika – hukumron nazariya nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innavorlar fikricha asosan adbiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogika fanidagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim pedagogika – bilimlar tizimidir obektivlik maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosiy harakteristikalaridir “Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyhalashtiradi va ushlab turadi yani ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir obektiv nazariyaning asosiy tamoyillarini faqatgina ilmiy purintsin bo'linish shart ammo g'oyaviy bo'lmasligi lozim insonning aqliy rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqligi obektivlikning yagona talabidir. Idealogiya bu har doim ham u yoki bu ijtimoiy guruhlarning bir tomonlama ijtimoiy qiziqishlari bo'lib ular buni qimmatli yo'l-yo'riq va g'oya sifatida boshqalarga majburlaydilar. Jahon pedagogik nazariyasi tarbiyaviy jarayon shrti bilan bog'liq yuqorida turgan odamlarning g'oyalari qanday bo'lishi bilan bog'liq allaqachon etirof etganligi. O'sib borayotgan avlodlar tarbiyasi juda jiddiy ish bo'lib uning

o'tkinchi narsalarga bog'liq etib qo'yish mumkin emas. Mustabidlik davrida mamlakatimizda ko'p vaqt insonni komunistik g'oyalar ruhida tarbiyalashga oid pedagogik ko'rsatmalar ustun bo'lib kelgan uning juda ta'sirligi turli chaqiriqlarni hayotga tatbiq etish kabi maqsadga qaramay uni ilmiy deb bo'lmaydi, chunki bunday g'oyalarni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi tizimini faqatgina fan o'rnatgan obektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Ma'lum bo'lishicha amaliyotda yo'l ko'rsatuvchi pedagogik nazariyalarimizning asosiy kamchiliklaridan biri bilim va ta'limning ustunligini qattiq bo'rtirib yuborishdadir insoniy manaviy mehnat tarbiyasi zarariga bilimda yodlab olish hajmi ko'payib borishi maktab hayotida odatiy xol bo'lib qoldi. Hozirgi tarbiya va u boshqarayotgan amaliyotning hamma belgilari bo'yicha inqiroz holatda ekani ko'rinib turibdi. Bu holatdan chiqish uchun bo'lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanayapti va bu holda ular o'z nomlariga mosdir. Innovatsion pedagogikani ko'pincha ananaviy muqobil pedagogika deb ataydilar. Bu fikriga qo'shilmaslik mumkin emas, hech bo'lmaganda eng oddiy tushunchalar bo'yicha sinf ham o'qituvchi ham, dars mazmuni va darsliklar yo'qolib ketmaydi. Agarda pedagogik tizim saqlanib qolsa unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapirish mumkin faraz qilayotgan rivojlanish strotegiyamiz rivojlantiruvchi o'qitish yo'naltirishlaridan eng avvalo o'z intilishlarini maktabda o'qishga boshlashgacha yaxshi rivojlangan tuzulmalarini shakillantirish hamda? bu harakatlarga endi paydo bo'lib kelayotgan jarayonlarni uyg'unlashtirib olib borishga qaratilgan strategik yo'limiz. Butun taraqqiyotning o'z avlodlari haqidagi g'amho'rliqi mantiqiga asoslangan didaktik va pedagogik tizim tuzishga amal qilishdir huddi ana shuning uchun ham metodologik asos negizi sifatida keng ma'noda tabiatni o'rgatuvchi soha bo'lib halq pedagogikasi hisoblanadi. Bolalarni qanday bo'lib tug'ilish uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi barkamol shaxs darajasiga yetishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z umrini hayotiy meyorlarga munosib o'tkazishi, avvalo maktabga

bog'liq. Har bir bola shaxsni sevish hurmat qilish va uning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish lozim. Agarda tabiatni o'rgatuvchi pedagogik moslashishni talab etmagan bo'lsa gumonistik pedagogika bu masalani munosabatlar markaziga qo'yishni va bola meyoriy darajada rivojlana olishi uchun, hamma sharoitini yaratishi talab qildi. Gummanistik pedagogikani ko'pincha innovatsion deb ataydilar, lekin innovatsionligi faqatgina ayrim ta'lim tizimlariga aloqador. Hozirgi zamon G'arb mamlakatlari ta'lim tizimlari uchun esa allaqachon gumonistik yo'nalishga o'ta boshlagan. Ta'lim asta-sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan. Gummanistik pedagogikani innovatsion pedagogika deb atalgan so'zining to'la ma'nosida aytish mumkin u tashqarida "inektsiya" talab qilmaydi, yuqori o'quv tarbiyaviy ta'sir natijalari tizimining ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi. Gummonizm dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boyliklar yagona kantseptsiyasi. Bu kantseptsianing asosiy qoidasi shaxs qadr qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish, huquqini tan olish buning uchun zarur qulay sharoitlarni yaratib berishdir. Gummonizm inson turmushi yagona va hususan alohida shaxs uchun ahamiyat umumiy ekanligini tasdiqlovchi g'oya va qadriyatlar yig'indisidir. Qimmatli yo'naltirish va ko'rsatmalar tizimi sfatida gummonizm ijtimoiy g'oya mazmunini oladi. Gummonistik pedagogik o'quv tarbiya jarayoni ishtirokchisini o'z imkoniyati bo'yicha rivojlantiruvchi teng huquqli ongli faol tarbiyalanuvchining yetishib chiqishiga ro'l o'ynovchi ilmiy-nazariy tizimidir. Inson qadr-qimmatini eng yuqori o'ringa qo'yilgan bizning davlatimizda insonparvarlik nuqtai nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchi munosabatlar o'zlashtirish faoliyati to'la huquqli subekti mustaqil erkin shaxs bo'lib yetishishidan iborat. Tarbiya jarayoning insonparvarlik darajasi ushbu jarayon shaxsi o'zini nomoyon eta olishi o'zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib bera olish uning erkinlikka qobilliyati ijodga masulliyatini ochib berish uchun shart-sharoit yaratib berishi bilan belgilanadi va baholanadi. Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga qaratilgandir. Uning belgilari ma'lumotlar egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalar yuzaga

keltirish o'rniga texnik jismoniy intellektual rivojlanishga diqqatning qaratilishi erkin mustaqil fikirlovchi va harakat qiluvchi shaxisni shakillantirishga qaratilgan kuchlarni jamlash har qanday hayoti va o'quv vaziyatlarida asoslangan qarorini tanlab qabul qila oladigan inson parvar fuqoro bo'lib yetishish o'quv tarbiya jarayonining muvoffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan taminlash, o'quv-tarbiya jarayoning insonparvarlashtirishni avtaritar pedagogikadan uning shaxsiga pedagogik bosimdan voz kechib o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish o'quvchi faoliyati va shaxsiy yorqinligiga asosiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsga qaratilgan pedagogikaga o'tish deb tushunish kerak. Bu jarayonni insonparvarlashtirish shunday sharoit yaratish deganiki bunda o'quvchi ilm olmasligi imkoniyatlaridan past darajada olmasligi mumkin emas, tarbiyaviy ishlarga befarq yoki muddatli o'tib boruvchi hayotda kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin emas gumonistik pedagogogika maktabni o'quvchiga moslashuvi qulay sharoit va "psixologik ximoya" bilan taminlashni talab qiladi. Insonparvarlik maktabi amaliyotini innovatsion faoliyatining anq shakil va uslublarini ishlab chiqishning ba'zilar keltirilgan:

1. O'quv-tarbiya faoliyatini defferentsiyalash;
2. O'quv-ta'lim jarayonlarini har bir shaxs xislatiga qarab muvoffiqlashtirish;
3. Har bir tarbiyalanuvchini va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
4. Sinflar va shunga o'xshashlarni tashkil etish;
5. O'quv-tarbiya faoliyatining qulayligi;
6. Psixologik xavfsizlik o'quvchilarni himoyalash;
7. O'quvchiga uning kuchi va imkoniyatlariga ishontirish;
8. O'quvchini qanday bo'lsa, shunday qabul qilish;
9. Ta'lim-tarbiya muvoffaqiyatini ta'minlash;
10. Maktab maqsad yo'nalishini o'zgartirish;
11. Har bir o'quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;

12.Sirtqi ta'limni ekstronat "o'quvchi bilan ma'naviy aloqasi yo'q" ta'minlanmasligi sababli to'xtatish, yo'qotish;

13.O'quvchi shaxsiy ichki yo-yo'riq ko'rsatmalarini qayta yo'naltirish;

14.Insonparvarlik ta'limini kuchaytirish insonparvarlik pedagogikasini statistik baholash juda qiyin. Ammo shu narsa aniqlanganki avtotreningga simpatiya va so'zsiz maqullash o'quvchilar rivojlanishi bilan moslashib bog'lanib ketishi va intizom maktabga salbiy munosabat kabi muammolar bilan yomon moslashuvi aniqlangan.

Innovatika muammolariga murojat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dindmikasi o'sib borayotganini tushunish natijasi bo'ldi. Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolar ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rnatib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar sifat harakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi, ammo bu o'zgarishlarni faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur unda innovatsion taxlil faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishini o'z ichiga olmay, balki boshqarish ta'lim, huquq va boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Innovatsion pedagogik muammolarini yechilishini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar borishi hususiyatlari mazmuni tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil analiz qilish bilan bog'liq. Innovatsion tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi bilim sohasi yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U maxsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladi, yangiliklarni kiritish haqidagi fan innovatsia firmalarining yangi reja hizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talablarni keskin oshib borishi aks etirilgan holda paydo bo'ldi. 30-yillarda AQShda "firma innovatsion siyosati", "innovatsion jarayon" atamalari paydo

bo'ldi, 60-70 yillardan g'arbda firmalar va boshqa korxonalar amalga oshirilayotgan yangiliklarni empirik tekshirishlar keng quloch yoyadi. Shu bilan birga diqqat ikki asosiy tekshirishlar sohasiga qaratiladi, ularning har birida o'z nazariy metodologik ustun turadi. Firma yangiliklarni kiritish tashabbuskori va yaratuvchisi sifatida bo'lib, uning yangiliklarini kiritishga "sezuvchanligini", "ta'sirchanligini" va bu ta'sirchanlik bog'liqligi boshqarishning tuzilishi va uslublari bilan bog'liqdir. Tekshirishlar dasturi sifatida "qaror qabul qilish jarayoni" kontsepsiyasi hisoblanib bunda alternativlarni tanlash va analizim qilish qabul qilingan qarorlarni ketma-ket bosqichlar bilan amalga oshirishga o'tiladi marketing yoki firmaning bozorga yangilik kiritishga tavakkalchilik omillari kiritilayotgan yangiliklar muvoffaqiyatini oldindan bilish metodlari alohida bosqichlar samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlari va yangilik kiritish umumiylikiga ustun turuvchi tekshirishlar paradigmasi bo'lib, ochiq tizim va o'yin sifat yondashuv nazariyasi hisoblanadi unda firmalar bozor bilan o'z muhitlari sifatida o'zaro munosabatda bo'lib va u yerda innovatsion jarayonning yakunlovchi bosqich ko'pincha subektlar o'zaro bog'liqligi natijasi bo'lib qoldi bu subektlarning har biri o'z manfaatiga qarab ish olib boradi va o'z sheriklari harakatlarini ehtimolini hisobga oladi. Bu ikki sohada yangiliklarni kiritishni amaliy tekshirishlar bir qator fanlar nazariy yangiliklaridan foydalanadilar. Ular turmush va mehnat texnik vositalari rivojlanishi qonuniyatlariga murojat etib o'rganilayotgan texnik tarixi va ijtimoiy o'zgarishlar o'zaro bog'liqligini o'rganadilar yangiliklarni kiritishni boshqarish amaliyotiga yangi g'oyalarni rag'batlantiruvchi omillar va uslublari haqidagi sotsiolog va ijtimoiy psixologlar xulosalarini innovatsion yangilik kirituvchilar va boshqa ishtirokchilar hislatlari haqidagi mulohazalarini faol tadbiriq etadilar. Innovatsyaning asosiy tushunchalari.

Yangilik: g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod).

Innovatsiya:

- Yangilanish, o'zgarish;
- Biror – bir yangilikni kiritish;

- Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

Innovatsiya – (inglizcha “Innovation” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish)³.

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorlarining mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchikov).

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchini o'zigagina taaluqli bo'lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion masshtabda ham bo'lishi mumkin.

Yangilikni kiritish:

- Innovatsiyadan foydalanish mexanizmi (yangilikni va uning jarayonini amaliyotga kiritish);

- Maqsadli o'zgartirish bo'lib, ma'lum sotsial – ijtimoiy birlik (muassasa, jamoa, guruh)ga yangilik kiritish, uni yangi stabil rivojiga olib keladi (A.I.Prigojin).

³ J.G'. Yo'ldoshev “Interfaol ta'lim sifat kafolati” (O'.M.O.N) 2008

- Yangilikni tarqatish va foydalanish orqali aniq maqsadga yo'naltirish bilan odamlar ehtiyoji yangi vositalar bilan ta'minlanadi. Bu kiritilgan yangiliklar ma'lum sifat o'zgarishlarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik ish faoliyatini sifat va samaradorlikni ta'minlashga, stabil holatda ish yuritishga, hayotiy talablarga javob berishni ta'minlaydi (V.A.Slastenin, P.S.Podynova).

- Dinamik sistema bo'lib, innovatsion jarayonni bosqich va strukturasi atrof muhit bilan o'zaro ta'sirida yangilanish va rivojlanish rejimida ishlashni ta'minlaydi.

Innovatsiyaning maqsadi – sarflanayotgan mablag' va kuchdan eng yuqori va sifatli natija olishdan iborat. Innovatsiya – boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor bo'ladi.

Novatsiya – agar islohat faoliyatining shakli, mazmuni va ko'lam qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, u o'z oldiga muayyan mavjud tuzumdagi faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qoingan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqat qilayotgan bo'lamiz.

Novator – yangilikni qabul qilish va amalga oshirishga tayyor shaxs. O'z shaxsiy pedagogik amaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o'zlashtiradi, qo'llaydi. Innovatorlar yangiliklardan yaxshi habardor va ular bilan kommunikativ muloqot o'rnatadi. Ishni yaxshilash maqsadida tavakkalchilikda shaklda ish tutadi. O'quv jarayonini taraqqiyoti va rivojlanishi uchun yangiliklarni loyihalaydi, zarur hollarda izlab, tanlay oladi.

O'zgarish – biror bir mavjud narsani boshqasiga almashtirish (o'zgartirish va variatsiyalash), ilgari mavjud bo'lganidan boshqacharoq ko'rinishda (avvalgiga ko'ra yaxshi tomonga o'zgargan, ya'ni yangicha ko'rinishda).

Islahot – keng masshtabli, butun sistemani qamrab oladi. Natijada sistema yangi ko'rinish oladi.

Yangilik – ilmiy tadqiqotning yakuniy baholash mezonidir. Yangilikning qiymati va xususiyati aniq mantiqiy ketma – ketlikdagi rivojiga ega bo'lib, u butunlay yangilanadi yoki nisbatan yangilangan bo'ladi.

Innovatsiyalarning belgilari:

a) Aktual muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovatsiya muammolarini mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi).

b) Pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.

Pedagogik innovatsiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi (stabil) sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Innovatsiyani sistemaning turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi.

c) Moslashuvga (qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar).

d) Ishning poyoniga yetishiga (innovatsiya to'liq potentsialli tatbiq etish darajasiga yetadi).

Yangilikning o'ziga xosligi (V.A.Slastenin, L.S.Podymova, A.I.Prigojin va b.):

- Pedagogik yangilik innovatsiyaning barcha xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi.

- Predmet faoliyatining ob'ektiga ta'siri - shaxsning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

- Yangilikning mavjudligi va uni kelib chiqishi – ijtimoiy buyurtmaga ta'sir qiladi.

- Pedagogik jamoatchilik yangilikni qabul qilish va tatbiq etishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

- Novatorlarning yangiliklari – ularning eng yuqori mahsulotlari deb qabul qilinishi kerak.

- Innovatsion jarayonlarni tatbiq etilishini uzoq muddat cho'zilishlari kuzatiladi.

- Innovatsiyalarning maqsadlari – qiymatli harakterga ega.

- Innovatsion jarayonlarning ijtimoiy – pedagogik shart – sharoitlar bilan o'zaro bog'langanligidadir. Shuningdek, innovatsiyalarning pirovard natijasini aniqlash ham juda murakkabdir.

Ta'lim tashkilotlariga yangiliklarni kiritish bosqichlari S.D.Polyakov tomonidan yangiliklarni kiritish modeli ishlab chiqilgan va u to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi faza – yangi g'oyalarni izlash. U o'z navbatida:

1. Axborotlar fondini yaratish. O'qituvchilarni ta'limda innovatsion jarayonlar rivojlanishiga bag'ishlangan konferensiya, amaliy seminar, treninglarda ishtirokini rag'batlantirish.

2. Ta'lim muassasasini innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, metod birlashma, markazlar, tuman, shaharlardagi internet orqali innovatsion banklar bilan aloqa o'rnatish.

Ikkinchi faza – yangilikni kiritishni shakllantirish. U o'z navbatida uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil va loyihalashtirish. Yangilikni kiritish g'oyalarini shakllantirish va o'quv yurtini ichki imkoniyati, ishni borish jarayonini loyihalash.

2. Innovatsion g'oyani novator o'qituvchilar ijodiy guruhi bilan aprabatsiyadan o'tkazish.

3. Aprobatsiya o'tkazilgan amaliy ishni yakunini chiqarish, shu asosda yangilikni keng miqyosda o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish va uni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish.

Uchinchi faza – yangilikni amaliyotga kiritish.

1. Boshqaruv resurslari. Keng masshtabli yangiliklarni amalga oshirishda boshqaruv resurslari ishga solinadi. U holda rahbar tashabbus va

ma'suliyatni o'z bo'yniga oladi va butun pedagogik jamoani eksperimentga jalb etadi, qatnashishni talab etadi.

2. Innovatsion o'quv. Innovatsion texnologiyalarni o'qish – o'rganish butun pedagogik jamoani jalb qilish orqali amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda rahbarning avtoriteti muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchi faza – yangilikni joriy etishni mustahkamlashdan iborat.

Bu fazada yangilikni o'qish – o'rganish butun pedagogik jamoa qatlamini to'la qamrab oladi. Hattoki yangilikka qarshi bo'lganlar ham bu jarayonga jalb etiladi. Bunday hollarda maktab rahbarini vazifasi ikki barobar oshib, u faqatgina tashkiliy pedagogik ishlar bilan chegaralanib qolmay, bir vaqtning o'zida ruhiy psixologik muhit yaratishi, ijodiy yondashuv asosida ish yuritishga to'g'ri keladi. Shunda maktabda yangilik tizimiga adaptatsiya qilishga optimal sharoit yaratish zaruriyati tug'iladi. Bu holat bir tomondan pedagog va o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarni o'tkazish, yangicha sharoitda, yangicha fikr yuritish, yangicha ish yuritadigan o'qituvchi va pedagogik jamoani shakllantirish eng muhim zaruriy shartlardan bo'lib qoladi.

Biz hozir ko'rib chiqqan model innovatsion jarayon rahbarlar tomonidan tashkil etiladigan, ularning tashabbuslari bilan “yuqoridan” yangilikni o'quv jarayoniga kiritishdan iborat.

Innovatsion jarayonni, yangilikni yuqoridan emas, pastdan, o'zini – o'zi rivojlantirish prinsipidan kelib chiqib innovatsion g'oyani ma'lum guruh o'qituvchilar tashabbus ko'rsatib, ishlay boshlaydilar. Innovatsion g'oyani amalga oshirish ishlarini boshqa hamkasblari qo'llab – quvvatlab, ular ham shu yo'sinda ish tuta boshlaydilar.

Bunday holatlarda bir guruh o'qituvchilar ham yangicha ishlash ishtiyoqi bilan tajriba – sinov ishlarini amalga oshiradilar. Shu asosda maktab o'quv jarayoniga yangilikni kiritish ishlari boshlanib ketishiga sabab bo'ladi. Albatta bu holatda ham yangilikni tatbiq etishda qarama – qarshiliklar bo'lishi mumkin. Bunday holatda ko'pchilikning fikri g'olib chiqadi. Va asosda yangilikni

zarurligi, o'z vaqtida amalga oshirish ta'lim sifatiga erishish garovi ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan “yuqoridan” tashabbus asosida yangilikni o'quv jarayoniga qo'llanishini “pastdan” tashabbusga nisbatan qarama – qarshi qo'yish mumkin emas. Ammo yangilikni yuqoridan markazlashtirilgan holda kiritilganda o'qituvchilarning innovatsion tashabbuskorligi pastroq darajada bo'lishi kuzatiladi.

Shu sababli maktab rahbarlari yangiliklarni pedagogik faoliyatga kiritishni rejalashtirishda: yangilikni maqsad va vazifalarini, uni o'quv jarayoniga kiritishning real imkoniyatlari, pedagogik jamoa uchun ijodiy muhit yaratish, ta'lim – tarbiyaviy ishlarni yangicha ishlash modelini, maktabning moddiy – texnik imkoniyatini, tajriba – sinovni olib borish texnologiyasini boshidan ohirigacha mantiqiy ketma – ketligini pedagogik jamoaning o'zi bilan hamkorlikda ishlab chiqishi kerak. Kelgusida maktab rivojlanuvchi rejimida ishlashi, sifat samaradorlikni kafolatlashiga ishonch hosil qilishi kerak. Pedagogik jamoa esa, ijodkor o'qituvchidan – ijodkor pedagogik jamoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Pedagogik innovatika pedagogikaga nisbatan yangi shakllanayotgan fandır. Innovatika 15-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, fan sifatida oldingi asrning 80-yillarida vujudga keldi. O'zbekistonda esa mustaqillik yillarida shakllana boshladi.

Innovatika fan sifatida yangiliklarni yaratilish qonuniyatlarini, ularni o'zlashtirish va tarqatish, tatbiq etish jarayonini o'rganadi. (V.A.Slastenin, P.S.Podymova)

Avvalo innovatsiyalar novator, bunyodkor, izlanuvchan ijodkor, yil o'qituvchilari ko'rik tanlovlarida ishtirok etgan o'qituvchilar faoliyatida kuzatiladi. Hozir mamlakatimizda innovatsion texnologiyalar iqtisodchilar, tadbirkorlar, fermerlar harakatlarida ham uchramoqda.

Innovatsion jarayon – innovatikaning kalitli tushunchasidir.

Innovatsion jarayon – yangilayotgan o'zgarishlarga (yangiliklarga) tayorgarlik ko'rish va uni amaliyotga tatbiq etishni anglatadi.

Umuman “yangilik” kiritishni “innovatsiya”ning sinonimi deb qabul qilish mumkin.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlarni asosiy uchta aspektda ko'rib chiqish mumkin:

- Sotsial – iqtisodiy;
- Psixologik – pedagogik;
- Tashkiliy – boshqaruv.

Yuqorida keltirilgan aspektlar asosida innovatsion jarayonning borishi sharoitlarga bog'langan holda kechadi.

Vujudga kelgan sharoit innovatsion jarayonga to'sqinlik qilishi yoki yangilikni tatbiq etishga olib kelishi mumkin.

Innovatsion jarayon stihiyali yoki oldindan puxta o'ylangan reja asosida ketishi mumkin. Shunga ko'ra boshqaruv jarayoni yoki sekinlashishi yoki jadallashishi kuzatiladi.

Innovatsion jarayonni tashkil etuvchi yangilik yaratish, o'zlashtirish, yangilikni qo'llash – hamkorlikda innovatika ob'ekti hisoblanadi. Pedagogik didaktikada esa o'qish jarayoni ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ana shu bilan ular bir – biridan farqlanadi.

Innovatsion faoliyat – ta'limning u yoki bu bosqichida innovatsion jarayonni amalga oshirishga yordam beruvchi kompleks choralar bo'lib, u jarayon ichida kechadi.

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya'ni ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvlarini o'zgartirishdan iborat.

Innovatsion jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u tsiklik harakterga ega bo'lib, quyidagi etapli strukturada, yangilikni kirishi, vujudga kelishi, opponentlar bilan kurashda tezkorligi, yetilishi, o'zlashtirilishi, tarqalishi, yoki krizis, yoki finalga borishidan iborat.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o'tkazish va tajriba – sinovlar orqali tatbiq qilishdan farqlash kerak. Masalan maktabda qo'shimcha kursni innovatsion deb bo'lmaydi.

Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Innovatsion muhit – pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi.

Innovatsion pedagogik loyiha – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g'oya, fikrlar majmuidir.

Innovatsion pedagogik reja – tasdiqlangan innovatsion o'quv loyihasi.

Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar. O'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami.

Innovatsion ta'lim – 1) ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni.

Innovatsion ta'lim muassasasi – yangi tipdagi ta'lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta'lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo'nalishli, predmetlari chuqur o'rgatiladigan maktablar va h.k.


Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o'yinlar, everestik, kreativ, muammoli, loyihalashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o'qitish – 1) yangicha o'qitish tizimi, 2) o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.).

Omilar yangiliklar kiritishni, tekshirish uchun bosqichga ajratadilar. Birinchi bosqich yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va turli xil yangiliklar ko'pgina empirik ma'lumotlarni analiz qilish bilan bog'liq; Ikkinchi bosqich yangilik kiritish jarayonining o'zini ularni bir soha muhitidan ikkinchi sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o'rganish deb qaraydilar; Uchinchi bosqichda tadqiqotchi diqqati turli hil innovatsion vaziyatlarni analiz qilish tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish yangiliklarni kiritish sohasida tavsiyanomalar yuzaga keltirishga qaratiladi. Bu bosqichda innovatsion siyosat davlat faoliyati bo'lib qoladi. Pedagogik innovatsion jarayonlarni G'arbda 50-yillar oxirlaridan boshlab bizning mamlakatimizda keyingi 10 yillikdan boshlab olimlar maxsus o'rgana boshladilar.

“Pedagogik tizim” va “Pedagogik tizimida yangiliklar kiritish” tushunchasini aniqlab olaylik. Pedagogik jarayon bilamizki pedagogik tizim asosida o'tib boradi. Pedagogik tizim bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo'lib ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa tizim buziladi uning o'rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagog tizimining tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar variantlari yig'indisi, o'zaro bog'liqligi ko'rinishi, o'quvchi tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiya jarayoni o'quvchilar tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakillaridan iborat bo'ladi. Bu tizimning tarkibiy qismlardan har biri har qanday darajada elementlarga detallashtirib yoyib ko'rsatilishi mumkin. Qurilgan tizimni tarkibiy tizim emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydigan pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari shuningdek natijalar “O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish” texnologiyalardan iborat. Ular berilgan rasmdagi pedagogik tizim metodida ko'zga tashlanadi, maqsadlar, natijalar bilan mos kelib, uzluksiz sikl tashkil etiladi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayoning ishonchi o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik tizim boshqaruv birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular maqsad va tuzilishlariga egalar.



Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaaryonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan: o'quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish.

O'zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olish, ishlatishga qaratilgan interfaol o'qitish usullari tez suratlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O'qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantirdi,

natijada o'quvchilar hamkorlik o'rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lim tizimining rastional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishidan iborat.

O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proektstiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, oldilariga qo'yilgan muammolarni echishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishning vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi: ta'lim berish mahorati, tarbiyalash olish mahorati. O'quv tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlari – ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, o'qituvchi pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;

- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda yangilashi;

- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tadbqiq etish, internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi.

- pedagogika mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilish va o'ziga o'zi baho bera olishi.

- oilaviy ta'lim-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirishi.

- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar milliy g'oya va milliy mafkura iqtisodiy islohotlar mohiyatini tushunib olishi.

- dars jarayonida pedagogika texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'llarini bilishi.

- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birdari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi.

- darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi.

- texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi bolalarning barkamol inson bo'lib etishishida o'zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta'lim-tarbiya berish kabilardir.

Yuqoridagi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari mazmunli amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o'stirishi, pedagogik tehnalogiyalari mustaqil o'rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Yangi pedagogik tehnalogiya nima va biz uni qanday tushunamiz? An'anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada? Yangi pedagogik texnologiya darslarning an'anviy darslardan farqi shuki bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratilidi? O'quchiga hech

qanday tazyiq o'tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan, savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi.

O'quvchini ishlatish deganda bir necha o'quvchiga mavzularni bo'lib berish orqali dars o'tish emas balki, hamma o'quvchilarni birgalikda ishlatilishni tushunamiz. O'quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz. Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata boradigan kichik ixtiroday o'tishi zarur. Atrofdagi olam va o'zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o'quv faoliyatini g'aroyib va maftunkor qiladi.

Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olish, nimalarga qodirligini isbotlay olish juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. Sinfingizda "maqtanchoqlar kuni"ni e'lon qiling. Unda har bir bola o'z ijodiy ko'nikmalarini va yutuqlarini oladi.

Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo'llagan ota-onalar va bolalar ularning foydali tomonlarini sinfdan tashqari o'tkazilgan tadbirlar va ota-onalar majlislarida o'z tasdig'ini topishga yordam beradi. 1-sinflardagi mashg'ulotlarni tasavvur yordamida sirli bilimlar mamlakatiga tugamas sayohat tarzidada tashkil qilish mumkin. O'quvchilar dastlabki hayolot usullarini o'rganiladi va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o'quv jarayoniga bog'liq ravishda borgan sari boshqariluvchan bo'lib boradi. O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini etarli darajada o'zlashtirgan bo'lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib ularning bo'linmalari va nima uchun xizmat qilishini o'rganish uchun dastlabki qadamlarni qo'yilishi kerak. 2-sinfda o'quvchilar dars mavzusi bilan bog'liq tayanch so'z va tushunchalar asosida kichik o'quv hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo'lishlari kerak.

Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish ularning qanday bo'limlardan tuzilganini qaanday xususiyatlarga va belgilarga ega ekanligini nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog'liqligini anglab etishi zarur. 3-sinfda o'quvchilar faoliyat muhiti turli-tuman bo'ladi.

Bolalar darslikdagi mavzular asosida tuzishgan yangi o'quv hikoyasini yoki turli fanlarga bog'liq ertaklardan "yangi ertaklar kitobi" shakllanadi. Tizimlarni bo'limlarga bo'lish va tizimlararo bog'liqlik ko'nikmasi avtomatik darajaga etkaziladi. 3-sinf o'quvchilari faoliyatining asosiy yo'nalishi kartotekalar yig'ishni izchilligini bilan olishlaridir. O'quvchilarga har kungi axborot oqimidan o'z faoliyatlariga foydali bo'lgan ma'lumotni tanlab olishdan sermashaqqat ishni o'rgatish 3-sinf o'quvchilarning qiziqishlari turli tuman bo'lib berayotgan savollarga javoblar esa turli sohalardan bo'lishi mumkin. 4-sinfda o'quvchilar oson va erkin holdagi turli o'quv hikolarini tuza oladilar. Ular orasida maktab dasturiga mos "ertaklar kitobi" tuziladi. O'quvchi tizim bo'limlarini saralashni va xususiyatlarini erkin holda amalga oshidi.

Lekin 4-sinfda asosiy ish tadqiqotchilik faoliyati va kartoteka tuzishga qaratilgan bo'ladi.

Ijodiy tasavvur rivojlantirish dasturi bo'yicha axborot blonlari va dars qurilmasida qanday malaka va ko'nikmalarni murakkab mavzularni tahlil qilishdan avval shakllantirish lozimligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega, shuning uchun dasturda u yoki bu bilimlarning asta sekin o'zlashtirishi malaka va ko'nikmalarni uzluksiz egallash natijasida o'quvchilar tayyorgarlik darajasi va yuklamalarning kengaytirilishiga erishildi.

Og'zaki ijod so'z boyligi	Uslub tavsiyanomasi	Tushunchaviy mulohazani shakllantirish. Asosiy yo'nalishi	Tavsiya etiladigan uslub mashqlar
Rivojlantirishning dolzarb xududi. Turli ertak, topishmoq biladilar. Yaqin rivojlantirish xudud tuzilishining turli usullari bilan tanishish shaxsiy o'quv	Rivojlantirishning dolzarb asosida qisqa hikoya tuza oladilar. Yaqin rivojlantirish xudud. 1. Fantaziyalar, hayollar nomi 2. Erkin prefiks 3. Lemirik 4. Suniveyi 5. "teskari ertak"	Rivojlantirishning dolzarb xududi buyum, narsa, nomlanishlari va xususiyatlari haqida tasavvurga ega ularni guruhlariga va sinflarga ajrata olish. Yaqin rivojlantirish xududi. 1. Tizimlar haqidagi ilk tushunchalarini	Yaqin rivojlantirish xududi. Mashqlar. 1. nima nimadan tuzilgan 2. Tizimosti yaxlit tarzda 3. Xususiyatlarni tasvirlab berish 4. Tasvirlash orqali topish

hikoyalari voqea ertak tuzish o'rganadilar.	6. Ertaklardan tayyorlangan gazak	shakllantirish 2. Tizimlarni bo'lish usullarini o'rganish. 3. Tizim xususiyatlarini o'rganish 4. Tizimlar qo'llanish shartini o'rganish	5. Nima nima uchun qo'llaniladi 6. Faoliyat natijasi 7. Topishmoq ayting va toping 8. Klasterlar 9. Aqliy hujum
---	-----------------------------------	--	---

Bir kosib o'g'liga:

“Men qarib qoldim endi xo'jalikni sen boshqarasan ishlab pul top”- debdi. Bola nima qilishini bilmay onasiga otasining gaplarini aytibdi.

O'qituvchi pauza qiladi va savol beradi:

Bolalar nima deb o'ylaysiz keyin nima bo'lgan. O'quvchilar o'z mulohazalarini bildirishlari kerak ayniqsa tez chalg'iydigan o'quvchilarning diqqat tortilishi lozim. Bir necha javoblar olingandan keyin, “qani eshitaylikchi o'zi nima bo'ldi ekan” deb ertakning davomi o'qiladi.

Pauza va savol: nima deb o'ylaysiz o'g'li endi nima qiladi. Turli variant javoblar bo'lishi mumkin. Aynan matndagi javobni aytirishga erishing.

O'g'li har qacha urinmasin pul olmabdi. Yana onasi oldiga kelibdi. Onalar nihoyatda yumshoq bo'ladi. Ona o'g'il qancha pul beribdi. U esa sevinib otasi oldiga yugurib kelibdi va “Otajon mana pul topib keldim” debdi. Pauza va savol: endi ota nima qilishi haqida o'quvchilarning fikrlari eshutilganda “to'g'ri” yoki “noto'g'ri”deb javoblar baholanishi emas balki, har bir javobga “raxmat bu sening fikring edi” “fikringni aytganing uchun minnatdorman” degan so'zlar bilan rag'batlantirib turishi lozim. O'quvchini to'g'ri javobini eshitgan bo'lsa ham boshqalarning javob variantlarini aytishlariga imkon yaratish kerak. Bir nechta javoblardan so'ng “Qani otasi haqiqatdan nima qildi ekan” deb matnni o'qishni davom ettiradi.

Shaxs ota indamay pulni olibdida yana o'tga tashlabdi. Bola mulzam bo'lib ko'chaga chiqibdi. Uzoq yuribdi. Qarasa bir kishi imorat qurayotgan ekan:

- Assalomu alaykum amaki – debdi bola.
- Vaalaykum assalom kel-kel bolam – debdi.

Bola xursand bo'lib uyiga qaytibdi. “Otajon mana pul olib keldim” debdi. Odatdagidek ota tangalarni olib o'tga tashlamoqchi ekan, bola dod deb otasining qo'liga yopishibdi.

Pauza va savol. Bola nima qilibdi? Turli javob variantlari etiladi. Imkon qadar savol-javob jarayoniga ko'pchilik o'quvchini jalb qilishga erishish lozim, so'ngra “Qani nima bo'ladi ekan davomi” mana nihoyasiga etkaziladi.

Shunda ota: “Balli bolam ana endi xo'jalikni boshqarish qo'lingdan keladi” – deb duo qilibdi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan – tashqari o'qish, odobnoma, konstitutsiya saboqlari, ekalogiya darslarida qo'llash mumkin bo'lgan U. Usmonovning “Chumchuq bola” hikoyasi ham “To'xtab o'qish” usulida juda qiziqarli o'tadi.

Pauza va savol: Qani aytingchi sizningcha Boboxon chumchuqni qaerdan olgan. Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi.

Boboxon chumchuq bolasini rosa qiynadi, suvga solib suzdirdi. Ikki qo'li bilan qanotlarini yoyib xilpillatdi. Keyin oyog'iga ip bog'lab ko'chaga olib chiqdi.

Pauza va savol: keling bir o'ylab ko'ramiz bu chumchuq o'zini qanday xis qiladi ekan.

Boboxon yalt etib Tal'atga qaradi, so'ng bir narsa o'yladi shekilli...

Pauza va savol: nima dedi? Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi. Mana buyoqda qalam shuncha berasanmi.

Pauza va savol: nima deb javob berdi. Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi. Tirik chumchuqni bitta qalamchami. Boshqa narsa yo'qmi?

Pauza va savol: Tal'at nima degan bo'lishi mumkin? Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi.

Agar xo'p desam mana bu o'chirg'ichimnm ham beraman. Boboxon bilagiga o'rab olgan pishiq ingichka ipini bo'shatib odamda o'chirg'ich bilan qalamni oldida chumchuq bolani berdi. Keyin kiziqib so'radi.

Pauza va savol: qanday savol bergan bo'lishi mumkin. Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi.

Buni alishib olib nima qilasan – dedi.

Pauza va savol: Tal'at nima deb javob berdi. Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi.

Hozir bilasan nima qilishimni.

Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi.

Birdan osmonga qo'yib yubordi va "bor uchaver"so'ng Boboxonga qaradi.

Pauza va savol: nima deb o'ylaysiz Boboxon qanday ahvolda edi. Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi. Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga goh pat-pat qanot qoqib bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolaga goh istehzo bilan kulimsirab turgan Tal'at o'rtog'iga jovdirab nima qilishni bilmay xang-mang bo'lib qolgan edi.

Pauza va savol:

1. Bolalar nima deb o'ylaysiz chumchuq o'zini qanday xis qilyapti.
2. Tal'at nima uchun qushchani qo'yib yubordi. Nima deb o'ylaysiz.
3. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekistonning Konstitutsiyasida nima deyilgan, eslab ko'ring
4. Keling ana shu hikoyani davom ettirib ko'ramiz. Boboxon sizningcha endi nima qiladi? Nima uchun?
5. Agarda siz Boboxonning yonidagi do'sti bo'lganingizda nima ishlar qilgan bo'lar edingiz.

Turli javoblar eshitilgandan keyin matn davom ettiriladi. O'quvchilarni muammoli vaziyatga tushurish har qanday muammoni hal qilishda atrofdagilarning ta'siri kerakligini his qilish o'zaro muammoni hal qilish malakalarni oshirish, ko'rish, eshitish, tahlil qilish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ma'lum bir vaziyatlardan xulosa chiqarishga o'rgatish hamkorlikda

ishlash ko'nikmalarini hosil qilish "Tez yordam" usulini turli holatlarda o'tkazish mumkin. Ya'ni juftlikka yoki kichik guruhlarda. Buning uchun o'tilgan yoki o'tiladigan mavzu turli ko'rinishlarda bo'lib beriladi.

Tarqatma material har bir guruhning har bir qog'oziga konvertga solib berildi. Har bir o'quvchi o'z konverti ichidagi bo'laklardan yaxlit biror narsa qilishi kerak. Bir muncha bir vaqtdan so'ng tekshirib chiqiladi va hech kimda hech narsa chiqmaganligi sababli 2-vazifa berildi. Endi guruh a'zolari birlarining bo'laklari kelib chiqdi va yaxlit biror narsa yasash uchun o'ziga kerakli bo'lakni boshqa guruhdagi boshqa do'stidan so'rab oladi va o'z bo'ladigan yonidagi sherigi uchun zarur ismini beradi. Ma'lum muddat o'tgandan so'ng guruhlarda ma'lum suv va iboralar paydo bo'la boshlaydi.

Boshqa guruhlariga nisbatan tez bajarib bo'lgan guruh ularga qo'shimcha topshiriq berib band qilib qo'yish kerak bo'ladi. "Tez yordam" usulini turli fanlar misolida ko'rib chiqamiz. Masalan: matematika darsida qo'llash usuli ilovada ko'rsatiladi.

6-ilova

a) to'g'ri burchak berilgan bu kvadratlar uchta shaklda iborat 3ta kvadratning hech birining ichidagi bo'lak boshqa biriga to'g'ri kelmaydi. Har bir bo'lak aynan shu kvadratdan hosil bo'ladi. Konvertni olgan har bir o'quvchi o'zining konverti ichidagi shakllarini olib ularni buklamasdan qayiltirmasdan ustma-ust chiqarmasdan yonma-yon shunday joylashtirishlari kerak. Kvadrat hosil bo'lishi shart. Lekin o'qituvchi shakllarni aralashtirib konvertlarni tarqatishi kerak bo'ladi. Konvertdagi shakllardan esa kvadrat hosil bo'lmaydi. O'quvchilar bir necha daqiqa ko'rishlari kerak bo'ladi. Kvadrat yig'a olmaganlariga ishonch hosil qilganlaridan so'ng ikkinchi vazifa topshiriladi. Ya'ni guruhlarda o'zaro shakllarni almashish bilan o'lchamlarni bir xil bo'lgan 3ta kvadratni hosil qilishlari kerak bo'ladi. Eslatma. Agar guruhda o'quvchilar soni 4 ta bo'lsa, demak, 4 ta kvadratni yig'ishlari kerak. O'z navbatida konvertlar ichidagi shakllar soni va tuzilishi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi. Odo'noma, mehnat, kasbga yo'naltirish darslarida "Hunari

bor – unari bor” mavzusi. Bu jarayonda doirani yig’ish orqali alohida bir kasb-hunarga oi rasmlar paydo bo’ladi. Bu tarqatma materiallar har bir doira bo’laklari har bir o’quvchiga alohida konvertlarga solinadi va har bir guruhda 4 tadan bir xildagi doira 4 xil ko’rinishda hosil bo’ladi. Darsga qo’yilgan maqsadga qarab savol-javob o’tkaziladi.

Masalan:

1. Doiralaringizda qaysi kasb egalari ko’rsatilgan?
2. Ahamiyat beringchi, ular nima qilyaptilar?
3. Sinf xonasini kuzating, unda kasb-hunar egalari tayyorlagan jihozlar bormi?
4. Duradgor nima yasagan? Hunarmand-chi?
5. Chevar nima tikkan?
6. Haydovchiga qanday yordam ko’rsatish mumkin?
7. Sizning oilangizda shu kasb egalari bormi? (Qo’shnilaringizda-chi?)
8. Siz qaysi hunarni egallashni xohlar edingiz? Nima uchun?
9. Bu hunarlarni egallash uchun qaerlarda o’qish kerak?
10. Nima deb o’ylaysiz qiz va o’g’il bolalar uchun alohida hunarlar bormi? Qanday nima uchun?
11. Keling bir faraz qilib ko’ramiz. 10 yildan keyin bu kasb egalari qanday asboblardan foydalanishmaydi. 50 yildan keyinchi?
12. Sizningcha hunarmand duradgor yoki chevarning ishlarini to’liq kompyuterlashtirish mumkinmi? Nima uchun?
13. Agar siz haydovchi bo’lsangiz kelajakda qanday avtomobilni boshqarishni xohlar edingiz? Ta’riflab yoki rasmini chizib bering.

U “Kim qaerda” usulidan maqsad o’quvchilarda o’zaro hurmat, bir-biriga yordam hissini, ma’suliyatini shakllantirish noqulay vaziyatdan chiqib ketish yo’llarini topish, darsda olingan ma’lum bilim va malakalarini sinab ko’rish, gapirmasdan muammolarni xal qilish yo’llarini o’rgatish. “Kim qaerda” usuli barcha fanlarda qo’llanishi mumkin. Bunday o’quvchilar 30-40 nafarni tashkil etsa ettirgan joylarda 20-25 nafarni tashkil qilsa doska oldida doira shaklida turib

olib bajarsa ham bo'ladi. Buning uchun hamma o'quvchilar ko'zlarini yumib turadilar. O'qituvchi o'quvchilarning har birini orqasiga ma'lum bir yozuvlarni yopishtirib qo'yadi. Ushbu yozuvlarni umumlashtiruvchi so'zlar xona devorlariga ilib qo'yiladi. Ana endi o'quvchilar gapirmasdan o'zlarining orqalariga qanday yozuv ilinganligini bilmasdan 21-xonaning qaysidir tomonidan o'ziga joy topishi kerak bo'ladi. Bu vazifani bajarish o'zi uchun juda mushkul, biroq bir-biriga yordam berishi mumkin. Gapirmasdan sinfdoshining orqasidagi yozuvni o'qib qo'lidan etaklab kerakli tomonga olib boradi va o'z navbatida unga ham yordam beradi. Shunday qilib, o'quvchilar o'zlarining joylarini topishlari kerak. Hamma o'z joyini topib oladi degan xulosaga kelingach, navbatma-navbat tomonlar tekshirib chiqiladi. Agar noto'g'ri turganlar bo'lsa nima uchun noto'g'riligi va uning qaerda bo'lish kerakligi aniqlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni turli savollar bilan faollashtiradi. Quyida bir nechta misol keltiriladi.

Dars mavzusi. Darsning maqsadi.

a) javdari non qanday undan tayyorlanishi, uning qanday non ekanligini tushuntirish;

b) nonni qanday tayyorlanishini, qanday mehnatlar evaziga dasturxonimizga etib kelishini o'rgatish;

v) nonni isrof qilmaslikka, uni qadrlashga o'rgatish.

Dars turi: amaliy nazariy.

Dars turi: aralashgan ko'rgazmali o'yin. Dars jihozlari: darsga oid rasmlar, tarqatma didaktik materiallar, rebus va plakat, boshqotirma, lug'at.

Darsning borishi.

She'r bilan boshlanadi. Navbatdagi axboroti davomatni aniqlash ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. Uyga vazifa qilib berilgan she'rni yodlash so'raladi. Savol-javob o'tkaziladi.

1. Qorbobo yil boshida qanday ekan?
2. Yil oxirida qanday bo'ldi?
3. Shu bir yil ichida u nimalar qilibdi.

So'ng mozaika o'yin o'tkaziladi. O'yin qoidalari: bu erda har bir partaga bittadan konvert tarqatiladi. Unga uyga vazifa qilib berilgan she'rdan yozilgan bo'ladi. O'quvchilar bu so'zlarni oq qog'ozga terishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ular she'rni yoddan bilishlari shart. Birinchi bo'lib so'zlarni terib tugatgan guruh g'olib bo'ladi.

Qish haqida topishmoq, she'rlar yodlashadi. So'ng barcha o'quvchilar 6 ta guruhga bo'linadi. Doskadagi rasmlar asosida she'rlarni sovuq, izg'irin, muz, yax, yaxmalak, sumalak, ayoq so'zlariga qo'yib hikoya tuzadilar. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun krassvord boshqotirma echiladi.

Quvnoq daqiqa.

Daraxt o'sadi, tikka shoh chiqaradi. Daraxt quyoshdan nur oladi. Erga soya soladi.

To'p-to'p-to'p futbolchilar tepar to'p

Darvozabon hur shoshar ishqibozlar qarashar.

Ana ana gol bo'ladi.

Hisob 1:0 bo'ladi.


1. Boshqotirmada rasmlar berilgan. Shu rasmlardagi bosh harflarni olib so'z yasaymiz. Biz o'rganmoqchi bo'lgan matnni nomi kelib chiqadi.

2. "Javdari non" hikoyasini guruhlariga bo'lib o'qitiladi.

Shu matn yuzasidan savol tuziladi. Guruhlar savollarni tuzishlari uchun vaqt beriladi. Savollar tayyor bo'lgach har bir guruh o'zining savollarini o'qiydi. Boshqa guruhdagilar esa savollarga javob beradilar.

Matnni mustahkamlash uchun qisqacha non haqida gapirib o'tiladi. Bug'doyni qanday yetishtirishni, qanday qilib un qilish va albatta non qilib yopish uchun qanchadan qancha kishilarning mehnati sarflanishi aytib o'tiladi.

Topshiriq klaster usulida "non" ni turlarini ko'rsatib o'tiladi.



Non haqida o'zlari bilgan she'r, maqollar yodlashadi. Topshiriq "javdari non" mavzusida rasm chizadilar. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni e'lon qilib, baholanadi, "javdari non" matnini ifodali o'qib qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish. Shuning bilan darsimiz tamom.

II bob bo'yicha xulosa

Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Darslarda ko'proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"nini sezish, his qilish, o'zini boshqarish fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ayniqsa, biz yuqorida ko'zda tutgan o'qish darsida innovastion texnologiyalardan foydalanamiz. O'qitish nutqiy, aqliy, fikriy holatlarni rivojlantirish, ularda bilim, ko'nikma, kategoriyalarni tez shakllanadi. Chunki o'qish darslarining to'la mazmuni o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishga qaratilgan bo'lib, boshqa darsliklar bilan inegrastiyalashib ketganini ko'ramiz. Shu sababdan, o'qish darslarida innovastion texnologiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

III bob. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili.

3.1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi.

Biz bitiruv malakaviy ishini yozishdan avval maktablarda kuzatish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Bunda biz o'z e'tiborimizni asosan, odobnoma darslarining qanday tashkil etilayotganligiga, unda o'qituvchi va o'quvchining ishtiroki, faolligi qanday ekanligiga, darsda qo'yilayotgan maqsad, vazifalar, ularning qay darajada amalga oshirilganligi, darsdan kutilayotgan natijalar, erishilayotgan yutuqlar qanday ekanligiga qaratdik. Shu asosda Yakkasaroy tumani 26-maktabning boshlang'ich sinflarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba – sinov ob'yekti etib ikki sinfni (1^A , 1^B , 2^A , 2^B , 3^A , 3^B , 4^A , 4^B -sinflar ichidan) oldik. Shu sinflardan biriga an'anaviy usulda, ikkinchisida esa pedagogik texnologiyalar asosida odobnoma dasturini tashkil etdik va natijalarni o'zaro taqqosladik. Bir xil vaqtda, bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan birgalikda, bir xil mavzuda odobnoma, darslari tashkil etilgan bo'lsada, natijalar, o'zlashtirish ko'rsatkichlari turlicha bo'ldi: pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darslarida o'quvchilar faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi. Hozir biz 4-“A” – sinfda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darsidan namuna keltiramiz:

Dars mavzusi: Yurt tinchligi.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga tinchlik, urush, terrorizm, aqidaparastlik, vatanparvarlik so'zlarining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berish.
2. O'quvchining tinchlikni asrash, vatanni sevish burchi haqidagi tushunchalarni rivojlantirish.
3. O'quvchilarni tinchliksevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Dars usuli: interfaol usullar.

(Guruh ishi, klaster usuli, muloqot, so'zlashuv, yakka tartibdagi ish)

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: Vatman qog'ozi, A-4 qog'ozi, markerlar, kley, rangli qog'ozlar, darsliklar, mavzu asosida ishlangan rasmlar, metoplan kartochkalari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O`quvchilarni darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Uyga berilgan vazifani aniqlash. 3-chorak davomida o`tilgan mavzular yuzasidan bilimlarni mustahkamlash.

- Aziz o`quvchilar, bugungi darsimiz mazkur chorakning oxirgi darsi bo`lganligi sababli, chorak davomida o`tilgan mavzuni eslab o`tamiz vabilimlarimizni mustahkamlaymiz.

- Bunda biz interfaol usullardan foydalanamiz.

Yozuv taxtasidagi vatman qog`ozlarda o`tilgan barcha mavzularimiz ko`rsatilgan. Hozir shu mavzulardan har bir guruh bittasini tanlab oladi va mavzuni yoritib beradi. Mavzuni yoritishda biz metoplan kartochkalaridan foydalanamiz. Metoplan kartochkalariga mavzularning asosiy mazmunini yoritib beruvchi ma`lumotlarni yozasiz.

3. Har bir guruhlardan bir vakl chiqib, mavzu tanlab guruhga qaytadilar.

Topshiriqni bajarishga 10 daqiqa vaqt beriladi.

Guruhlarda ish olib boriladi, guruh ishlari nazorat qilib boriladi.

Vaqt tugagach guruhlar o`z ishlarini taqdimot qiladilar. Masalan:

-Bizning guruhimiz “Temuriylar tarixi Davlat muzeyi” ustida ishladi va quyidagi ma`lumotlarni bildirmoqchimiz.

1. Temuriylar tarixi muzeyi 1996 yil 18-oktabrda ochildi.
2. U Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonining shimoli-g`arbiy tomonida barpo etilgan.
3. Muzey ochilishida prezidentimiz Islom Karimov nutq so`zlaganlar.
4. Muzey uch qavatli, gumbazi moviy rangda.
5. Birinchi qavatda kutubxona, majlislar zali, chiptaxona, ma`muriyat joylashgan.
6. Ikkinchi qavatda qadim zamonlarga borib taqaluvchi eksponatlar joylashgan.
7. Uchinchi qavatda Amir Temur va Temuriylar tarixi bilan bog`liq eksponatlar joylashgan.
8. Muzeydagi eksponatlar Amir Temur zamoni haqida atroflicha ma`lumot beradi.

Berilgan ma`lumotlardan tashqari qo`shimcha ma`lumotlar ham beriladi.

Shu tariqa qolgan guruh a`zolari ham o`z ishlarini taqdimot etadilar.

Taqdimot natijalari tahlil etib boriladi.

Taqdimotdan so`ng o`tilgan mavzular umumlashtirib xulosa qilinadi.

Adolatparvarlik-vijdon amri




Badnafs bo`lma, shukur qil.



Salomatlik kushandalari.

4. Yangi mavzu bayoni.

Bugun darsligimizdagi “Farovonlik – hayot ko`rki” IX bo`lim mavzulari bilan tanishishni boshlaymiz. Ushbu bo`lim “Yurt tinchligi”, “Millatlararo totuvlik”, “Oila to`kisligi” mavzularini o`z ichiga oladi. Bu bo`limdan yurt – millat tinchligi, oila totuvligi va to`kisligini anglatuvchi omillar haqidagi bilim

va tushunchalarimizni rivojlantirib, kengroq ma'lumotlar olamiz. Bugun "Yurt tinchligi" mavzusi bilan bo'limimizni boshlaymiz. Mavzu yuzasidan ma'lumotlar berildi. Tinchlik, terrorizm, aqidaparastlik, urush va vatanparvarlik tushunchalarining ma'nosi ochib berildi. Oldingi darsda ushbu mavzu bilan mustaqil ravishda tanishib chiqishingizni vazifa qilib berilgan edi. Ushbu mavzu bilan qay darajada mustaqil tanishganingizni klaster usulidan foydalanib aniqlab olaman. Har bir guruhga o'rtasida tinchlik, terrorizm, aqidaparastlik, urush va vatanparvarlik so'zlari yozilgan vatman qog'ozlari beriladi. Bu so'zlarning mazmun-mohiyatini klaster usulidan foydalanib ochib beradilar va taqdimot qiladilar. Guruh ishi uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimotlar yuzasidan guruhlar fikri tinglanadi.





5. Aziz o`quvchilar, endi lirik chekinish qilamiz. Har bir guruh a`zolari ixtiyoriy ravishda tinchlik haqida she`r, hadis, maqollardan na`munalar keltiradilar va mazmunini tahlil qilib beradilar. Topshiriqni bajarish uchun besh daqiqa vaqt beriladi.

O`quvchilar  $\frac{1}{2}$  vatman qog`oziga tinchlik haqidagi maqol, hadis, she`rlarni yozadilar va taqdimot etadilar.

Masalan:

Yomg`ir bilan yer ko`karar,
Tinchlik bilan el.

6. Darslikda berilgan Q.Muhammadiyning tinchlik haqidagi she`rini ifodali o`qib, mazmuni tahlil etildi.



7. Yangi mavzu o`quvchilar tomonidan qanday o`zlashtirib olinganligini aniqlash uchun savollar beriladi.

- Tinchlik haqida qanday tushunchaga ega bo`ldingiz?
- Yurt tinchligini buzmoqchi bo`lgan kimsalar haqida nima deya olasiz?

8. **Darsni yakunlash.**

- Aziz o`quvchilar, bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Bugungi darsdan qanday bilim va malakalar, tarbiya olganingizni mana bu gul yaproqlariga yozib berasiz. Siz bilan bilim va tarbiya gulini hosil qilamiz.

O`quvchilarga gul yaproqlari tarqatiladi. Unga o`quvchilar bugungi darsda qanday bilim, tarbiya olganliklari haqida fikrlarini izhor qilib yozadilar. Bunda har bir o`quvchi individual ishlaydi.



10. Guruhlarni va liderlarni baholash.

11. Uyga vazifa berish.

“Yurt tinchligi” mavzusiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plash.

Yana bir 3-“B” – sinfda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darsidan namuna keltiramiz:

Mavzu: Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor
bilan yashagan bobolar.

Maqsad:

Vatan nima? Tushuntirish. Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor haqida tushuncha berish. Vuyuk bobokalonlarimiz bilan tanishtirish.

Vatanni sevisish va asrash ruhida tarbiyalash.

Dars turi: Interfaol.

Usuli: Suhbat, klaster.

Ko‘rgazma:

- 1) Vatanimiz manzarasi tasvirlangan rasmlar.
- 2) Bobokalonimiz A.Navoiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa rasmlar.
- 3) Kostitutsiya kitobi. Prezident I.A.Karimov rasmi.
- 4) Qog‘oz va flamaster.

Darsning borishi.

1) Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash, dars maqsadini tushuntirish.

2) Dars mavzusini bayon qilish.

- Bolalar bugun biz 3 guruhga bo‘linib interfaol usulda dars o‘tamiz. Darsimizning mavzusi “Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor bilan yashiyotgan bobolarimiz” haqida suhbatlashamiz.

1 guruh – Vatan nima?

2 guruh – Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur nima?

3 guruh – Bizning iftixorimiz bo‘lgan bobokalonlarimiz haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Guruhlarga qog‘oz, qalam beraman, ular klaster usulida o‘z fikrlarini chizib, so‘ng tushuntirib beradilar.

Bunda o'quvchilar guruhlar ishida o'zaro fikr almashadilar, bilimlarini jamlab, mustaqil fikrlarini bayon qila oladilar.

- O'quvchilar ma'lum vaqt ichida o'z mavzulari bo'yicha fikrlar to'plab, taqdimotga chiqadilar.

1 – guruh. Vatan – bu O'zbekistonim, kindik qonim to'kilgan joy, oilam, o'bek to'ylari, nahorgi oshlar, beshikda yotish, atlas, do'ppi kiygan vatandoshlar, gerbimizdagi paxta, bug'doy, tog', bog'lar haqida gapirib berdilar.

2 – guruh. Vatan tuyg'usi, milliy g'urur haqida gapirdilar. Men tirikligim bilan, o'zbekligim bilan g'ururlanaman. Vatanimni sevaman, otamni, oilamni, maktabimni sevaman, armiyaga borib hizmat qilish, dushmanlardan asrash, dunyoga tanitish, go'zal shaharlarimiz, buyuk olimlarimiz borligi bilan g'ururlanishlarini aytdilar.

3 – guruh. “Bizning iftixorimiz bobokalonlarimiz” bilan tanishdilar.

A.Navoiy – shoir, Ibn Sino – tabib, A.Temur – sohibqiron, xarbiy sarkarda. Olimlar, me'morlar, rassomlar o'z asarlari bilan o'chmas iz qoldirganliklari, o'zbek tili, o'zbek millatini dunyoga tanitganlari bilan faxrlanishlari va ularga o'xshab yashashga harakat qilishlari haqida gapirdilar.

Dars so'ngida bolalar fikrlarini umumlashtirib, darsni yakunladim.

- Bolalar Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan majlisida “Vatan tuyg'usi” haqida gapirib, “Har bir o'zbek farzandi o'z uyini, o'z vatanini sevisi, ardoqlashi va asrashi haqida” yana gapirib o'tdilar. O'zbek xalqi A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir kabi vatan ozodligi, erki yo'lida kurashib, qurbon bo'lganlar vatandoshlarini hech qachon unutmaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z hayotini vatan, xalq, millat taraqqiyotiga bag'ishlagan ko'plab vatandoshlarimiz xotirasini yod etib, ularni “Buyuk xizmatlari uchun ordeni” bilan mukofotladi. Inson uchun Vatandagi hamma narsa: xalqi, yeri, tarixi, ertangi kuni ham aziz bo'lishi kerak.

- Aziz bolajonlar siz ham Vatanimizni asl farzandlari bo'lib, aqlli, odobli, bilimli bo'lishga, Vatanni sevishga, ardoqlashga o'rganing.

Dars so'ngida aktiv qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Tajriba – sinovgacha bilim darajasi.

1 – jadval

O'quvchi soni	1 – savol	2 – savol	3 – savol	4 – savol	5 – savol	ball
5	10	12	8	10	12	52 ball
16	12	14	14	12	14	66 ball
10	14	16	18	18	18	84 ball
4	18	20	16	20	18	92 ball

Tajriba – sinovdan so'ng bilim darajasi. 2- jadval

O'quvchi soni	1 – savol	2 – savol	3 – savol	4 – savol	5 – savol	ball
5	14	16	12	12	14	68 ball
22	14	16	16	18	16	80 ball
8	20	20	18	20	20	98 ball

Xulosa qilganda tajriba – sinov boshida olingan natijalar noan'anaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish hisobiga samaradorlik o'sganligidan dalolat beradi.

UMUMIY XULOSA

Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va yo'nalishlardan foydalanish bugungi kunda dolzarb hisoblanib, bu borada olimlarimizning bir qator tadqiqotlari mavjud.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tshkil etish o'qituvchining bu faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlik darajasi. Innovatsion muammolarni hal etish muhim zamonaviy ilmiy fkr lash yo'nalishlariga qo'shish. Innovatsion jarayonlarni o'rganish. Innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xussusiyatlari o'rganishdan iborat.

Innovatsiyani tanlashda pedagogik tizimda yaxlit pedagogik o'quv yurti, pedagogik nazariya, o'qituvchi, o'quvchilar pedagogik texnologiyasi, ma'lum shakl, metod, vositalar, boshqaruv maqsad va natijalar muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Darslarda ko'proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"nini sezish, his qilish, o'zini boshqarish fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ayniqsa, biz yuqorida ko'zda tutgan o'qish darsida innovastion texnologiyalardan foydalanamiz. O'qitish nutqiy, aqliy, fikriy holatlarni rivojlantirish, ularda bilim, ko'nikma, kategoriyalarni tez shakllanadi. Chunki

o'qish darslarining to'la mazmuni o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishga qaratilgan bo'lib, boshqa darsliklar bilan integratsiyalashib ketganini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o'quvchining ta'lim faoliyati innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi oson kechadi va ta'lim samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: 1997.
3. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent Ma'naviyat 2008.
4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. –T.: 1997.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: 1997.
6. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T;. Istedod - 2010
7. J.G'.Yo'ldoshev. “Ta'limimiz istiqbol yo'lida”. –T.: Sharq 1996.
8. J.G'.Yo'ldoshev. S.A.Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari”. –T.: O'qituvchi, 2004.
9. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberganov. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.
10. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
11. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
12. N.R.G'aybullayev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova. Pedagogika. O'quv qo'llanma, O'zMU. 2005.
13. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.
14. M.Muhammad Do'st, O.Musurmonova va boshqalar. Sog'lom avlod – bizning kelajagimiz. –T.: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2000.
15. N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Yozuvchi nashriyoti, 2006.
16. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006-2007 yillar (4-8-son).
17. Maktab va hayot jurnali. 2006-2007 yillar (3-7-son).
18. Ma'rifat gazetasi. 2007 yil.